

# TIBBIY TERMINLAR LUG'ATI

Ushbu lug'at alifbo (alfavit) tartibida joylashtirilgan.

Ko'plab kasalliklarning nomi lug'atga kiritilmagan. Ko'rsatkichdan foydalaning. Boshqa kasalliklar haqida kitobdan o'qing.

A B V G D Y E Y O J Z I Y K L M N O P R S T U F X S C H S H E Y U Y A O' Q G' H

## A

**Abssess** (xuppos, gazak) - Bakteriya yoki boshqa infeksiya tufayli kelib chiqqan yiringli xalta.

**Alkogolizm** (ichkilikbozlik) - Ichkilikbozlik odamning pivo, vino, aroq kabi spirtli ichimliklarga doimiy ehtiyoji.

**Allergiya** - Atrofdagi narsalarga (ovqat, chang, dori-darmon va boshqalarga) o'ta manfiy sezgirlik. Bu holatda odamda toshmalar toshish, chuchkirish, nafas qisish va eng og'ir holat shok kelib chiqishi mumkin.

**Almashlab ekish** - Bir dalada birin - ketin turli ekinlarni almashtirib ekish, bunda tuproq yildan yilga kuchsizlanish o'rniga, boyroq bo'la boshlaydi.

**Amyobalar** - Suv yoki ichakda

yashovchi faqat mikroskop ostida ko'rinadigan juda kichik mavjudotlar. Ular ich ketar, ich burug' (deziinteriya) va jigar absesslariga olib kelishi mumkin.

**Amputatsiya** - Tananing biror qismini kesib tashlash.

**Anemiya** - Kamqonlikka qarang.

**Antatsidlar** - Oshqozondagi kislotani nazorat qilish va oshqozon og'rig'ini pasaytirishga yordam beradigan dorilar.

**Antibiotik** - Bakteriya orqali kelib chiqqan infeksiyalarga qarshi kurashuvchi dorilar.

**Antigistamin** - Isitma va qichishish kabi allergik ta'sirlarda ishlatiluvchi dorilar. Shuningdek qayt qilishni to'xtatib, ko'p uxlashga sabab bo'lishi mumkin.

**Antiseptik** - Bakteriyaning ko'payishiga to'sqinlik qiladigan moddalar.

**Antispazmatik** (Spazmolitik)

Spazmga qarshi-ga qarang.

**Antitoksin** - Zardobga qarang.

**Aorta** - Yurakdan chiqib tanaga qon tarqatuvchi yo'g'on tomir.

**Appenditsit** - Chuvalchangsimon o'simtaning yallig'lanishi.

**Arteriya** - Yurakdagi qonni tanaga tarqatuvchi qon tomiri. Arteriyada puls bo'ladi. Vena(tomir) qonni yurakka qayta olib keluvchi tomirlarda puls bo'lmaydi.

**Askarida** (kurt) - Odamlarning ichaklarida yashovchi va noqulayliklar, qorin og'rig'i, quvvatsizlik va ba'zan ichakning to'silishiga olib keluvchi katta qurtlar.

**Asoratlar** - Ba'zan kasallik sababli kelib chiqadigan ikkinchi darajali sog'liq muammolari. Masalan, meningit qizamiqning xavfli asorati sifatida kelib chiqishi mumkin.

**Ateroskleroz** - Organizmda turli sabablar tufayli kelib chiqadigan, kimyoviy (yog'simon) moddalar almashinuvining buzilishi va shu tufayli qon tomirlarining ichki qavatini shikastlab, jiddiy kasalliklarga (insult, infarkt) olib kelishi mumkin.

**Aerozol** - Nafas yo'llariga sepiladi, odatda qalpog'ini ezganingizda dori sochiladi.

## B

**Bavosil** (gemorroy) - Orqa peshov ichidagi yoki tashqarisidagi og'riqli, kichik shishiq. Ular shishgan venalardir(tomirlardir).

**Bakteriya** - Faqat mikroskop ostida ko'rinadigan va turli infeksiyon kasalliklarga olib keluvchi mikroblar.

**Balg'am** - nafas yo'llari (bronxlar) ning shilliq qavatlarining yo'talganda tashqariga chiqadigan ajramasi . U yiringli yoki qonli bo'lishi mumkin.

**Balg'am ko'chiruvchilar** - Nafas yo'llaridagi shilimshiqqlarni chiqarishga yordam beruvchi dorilar .

**Bachadon** - Ayollarning bola rivojlanadigan qorin sohasidagi xaltasimon a'zosi.

**Bachadon bo'yinchasi** - Qin orqasidagi bachadonning ochilish joyi.

### **Bachadonni qisqartiruvchi dorilar -**

Bachadon va uning ichidagi qon arteriya va venalarning qisqarishiga olib keluvchi xavfli dorilar. Ular faqatgina bola tug'ilgandan keyin, onaning ko'p qon yo'qotish hollarida ishlatilishi kerak.

**Belgilar** - Odamning qanday kasallik bilan og'riyotganini bilish uchun uni tekshirish jarayonida qidirilayotgan narsalar yoki holatlar.

**Boylam** - Suyak yoki ichki a'zolari bir-biriga biriktirib ushlab turadigan pishiq biriktiruvchi to'qima tolalar tutami.

**Bronxlar** - O'pkaga havo olib boruvchi naylar. Ular orqali odam nafas oladi.

**Bronxit** - Bronxlarning infeksiyalanishi (yallig'lanishi).

**Buyraklar** - Katta loviya ko'rinishidagi belning pastki qismidagi organlar bo'lib, qonni filtrlaydi va chiqindilaridan siydik hosil qiladi.

**Buyrak toshi** - Buyrakda hosil bo'ladigan va siydik yo'llaridan

pastga suriladigan kichik toshlar. Ular belning pastki qismidagi bir taraflama, siydik yo'llari yoki qorinning pastki qismidagi qattiq og'riqlarga sabab bo'lishi mumkin.

**Bujama** (husnbuzar) - yuz, ko'krak yoki orqadagi uchi bir oz yiringli yoki kirdan bo'lgan qora qalpoqchali shishchalar. Ko'pincha yoshlarda uchraydi (bo'ydoqlik).

**"Bo'ri og'iz"** - Bunday tug'ilgan bolaning tanglayi bo'lingan yoki og'iz bo'shlig'ining tepa qismida odatdan tashqari bo'lgan tirtiq joyi bo'ladi.

**Bo'qoq** - Yodni kam iste'mol qilish natijasida, bo'yinning oldingi qismida rivojlanib boruvchi shish (qalqonsimon bezning kattalashishi).

## V

**Vazelin** - Teri mazlarini(surtmalarini) tayyorlashda ishlatiladigan yog'.

**Venalar(tomilrar) kengayishi** (varikoz venalar) - Venalarning odatdan tashqari shishib, to'planib qolishi, odatda, bu katta yoshdagi odamlar, homilador ayollar yoki ko'p bolali onalarning oyoqlarida uchraydi.

**Virus** - Bakteriyalardan ham kichik bo'lgan mikroblar bo'lib, ular ba'zi infeksiyon (yuqumli) kasalliklarga olib keladi.

**Vitaminlar** - Organizmning to'g'ri ishlashi uchun kerak bo'ladigan "himoya qiluvchi" moddalar.

## G

**Gormonlar** - Maxsus ish bajarish uchun organizmning a'zolarida ishlab chiqariladigan kimyoviy moddalar. Masalan: estrogen va progesteronlar ayollarning hayzini nazorat qiluvchi va homiladorlikdan saqlovchi gormonlardir.

**Gemorroy** - Bavosilga qarang.

**Gigiyena** - Salomatlik uchun muhim bo'lgan shaxsiy tozalik ishlari va chora tadbirlar.

**Gips** - Bint va albasterdan qilingan singan suyakni tuzalgunga qadar joyida saqlab turuvchi qattiq bog'lam.

**Glyukoza** - Organizm oson va tez ishlatishi mumkin bo'lgan shakar turi. U mevalar, asal tarkibida bo'ladi, U Suvni Tiklovchi Ichimlik tarkibida ham bo'ladi.

**Grija** - Churraga qarang.

**Gripp** - Isitma, bo'g'inlardagi og'riq va ba'zan ich ketish bilan kechadigan qattiq shamollash.

**Gul changi** - Urug'li o'simliklar gullari chiqaradigan chang. Gul changiga allergiyasi bor odamlarda daraxt va o'simliklar gullab havoda gul changi ko'p bo'lgan vaqtda burun oqishi, ko'zlarning qichishishi kabi xolatlar yuz beradi.

## D

**Dermatit** - Teri kasalliklarining bir turi.

**Dieta**- Parhezga qarang.

**Dizenteriya**- Ichburug'ga qarang.

## YO

**Yotoq yaralari** - Yotgan joyida boshqa tarafga ag'darila olmaydigan kasal odamlarda paydo bo'ladigan surunkali ochiq yaralar.

## J

**Jigar** - O'ng tomonda qovurg'alar ostidagi qonni tozalashga yordam beruvchi va uni zaharlardan xalos qiluvchi organ.

## Z

**Zardob**- Ilon chaqishi kabi zahardan davolash uchun ishlatiladigan antitoksin (dori).

### I

**Illatlar** - Tug'ma illatlar: bolaning jismoniy yoki aqlan zaif tug'ilishi, masalan quyon lab, bo'ri og'iz, ortiqcha qo'l yoki oyoq barmoqlar bilan tug'ilgan bolalar.

**Immunizatsiya** - Emlashga qarang.

**Insulin** - Oshqozon osti bezi ishlab chiqaradigan, qon tarkibidagi qand miqdorini nazorat qiluvchi modda. Insulin ukollari qandli diabete bor kasallarini davolashda ishlatiladi.

**Insult** - Miyaga Qon quyilishiga qarang.

**Infeksiya** - Bakteriya yoki boshqa mikroblar orqali kelib chiqqan kasallik. Infeksiyalar tananing biror qismi (infeksiyalangan barmoq) yoki butun tanaga (qizamiq) ta'sir qilishi mumkin.

**Isitma** - Tana haroratining odatdagidan ortib ketishi.

**Ichburug'** - Shilimshiq va qonli ich ketish.  
U odatda infeksiyadan kelib chiqadi.

**Ich ketar** - Tez-tez keladigan suyuq axlatlar.

**Ich qotishi** - Quruq, qattiq, chiqishi qiyin va kam keladigan axlatlar.

**Ichak** - ovqatni hazm qiladigan nay-simon ichki a'zo. Oshqozon va orqa peshov orasida joylashgan kanal.

**Ichak invaginatsiyasi** - Ichakning bir qismi ikkinchi, yonidagi ichakka sirg'alib, kirib qolishi, bunda odatda ichakning to'silishi kuzatiladi.

**Ich yumshatuvchilar** - Ich qotishiga qarshi ichni yumshatib, tez-tez keladigan qiluvchi dorilar.

**Ich yurgizuvchilar** - Ich ketishga olib keladigan kuchli yumshatuvchi.

**Irsiy** - Ota-onadan bolaga ma'lum kasallik va belgilarning o'tishi.

### Y

**Yo'ldosh** - Bachadon ichidagi to'q qalin va yumshoq qatlam, bola va ona organizmlari qo'shiladigan joy. Yo'ldosh odatda bola tug'ilgandan so'ng 15-30 minut ichida chiqadi.

**Yo'g'on ichak** - Orqa peshovga yaqin bo'lgan ichakning tugash joyi.

## K

**Kamqonlik** - Qon tarkibidagi qizil hujayralarning kamligi natijasida qonning suyuqlashishidan kelib chiqadigan kasallik. Belgilariga charchash, rangning oqarishi va kam harakatlilik kiradi.

**Kana** - O'rmalovchi hayvonga o'xshash hashorat bo'lib, u boshini teri ostiga kirgizib qonni so'radi.

**Kariyes** - Tishdagi kovak.

**Katarakta** - Bu ko'z muammosi bo'lib, bunda ko'z pardasi asta-sekin xiralashib ko'rish qobiliyati pasayadi. Ko'z qorachig'iga yorug'lik tushirilganda u kul rang yoki oq bo'lib ko'rinadi.

**Kateter** - Qovuqdagi siydikni chiqarish uchun ishlatiladigan rezinali naycha.

**Kvashiorkor** (ho'l to'yimaslik) - Oqsillarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik natijasida kelib chiqadigan og'ir to'yinmaslik. Kvashiokorga chalingan bolaning oyoq-qo'llari va yuzlari shishgan, archilayotgan yaralari ko'p bo'ladi.

**Kindik tizimchasi** - Bola kindigini ona bachadoni ichidagi yo'ldoshga

bog'lab turuvchi tizimcha.

**Kindik churrasi** - Kindikning katta bo'lib tashqariga chiqib qolishi, bu ichakni ushlab turuvchi qorin pardasining shikastlanishidan kelib chiqadi.

**Kista** - Organizmdagi odatdan tashqari haltasimon, suv bilan to'lib o'sib borayotgan, bo'shliq.

**Kovak** - Tishga bakteriya kirib uni shikastlashi natijasida paydo bo'lgan teshik yoki qora dog'.

**Klizma** (huqna) - Yo'g'on ichakka yuborilib, ichning kelishiga olib keluvchi muolaja.

**Kolostrum** (og'iz sut) - Ona ko'kraging birinchi bor ishlab chiqargan suti. Uning ko'rinishi suv kabi bo'lsa-da, u oqsillarga boy bo'lib bolani infeksiyalardan saqlaydi.

**Koma** - Odamning o'ziga keltirib bo'lmaydigan darajada hushidan ketishi. Bu kasallik, jarohat, zaharlanish yoki boshqa kasallik natijasida kelib chiqib ko'pincha o'limga olib keladi.

**Kompress** - Tananing biror qismiga qo'yiladigan taxlangan latta yoki bolishcha. U issiq yoki sovuq suvda ho'llangan bo'lishi mumkin.

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

**Kontratseptiv** - Homiladorlikning oldini olish uchun ishlatiladigan har qanday usul.

**Kon'yuktiva** - Ko'z oqini qoplab turuvchi va qovoqning ichki tarafidagi nozik, himoyalovchi parda.

**Kraxmal** - Makka, guruch, bug'doy, kartoshka va mevali sharbatlar kabi quvvat beradigan ovqatlar tarkibida bo'ladigan modda.

**Kretinizm** - Bolaning aqlan zaif va ko'pincha kar tug'ilishi. U ko'pincha ona parhezida yod miqdorining kamligidan kelib chiqadi.

**Kseroftalmiya** - "A" vitaminining yetishmovchiligidan kelib chiqadigan ko'zning odatdan tashqari qurib ketishi.

**Ko'krak abssessi** - Mastitga qarang.

**Ketlik-yurgak toshmasi** - Bola oyoqlari orasidagi uning ko'tlik yoki yotog'idagi siydikdan kelib chiqqan qizg'ish bichilishlar.

### L

**Limfa tugunlari** - Tananing turli joylaridagi kichik teri osti mikroblar-

ga qopqon bo'lib xizmat qiladigan shishchalar. Ular infeksiyalanganda shishib og'riqli bo'lib qoladi. Sil va rakda ular ko'pincha shishib qoladi, ammo og'rimaydi.

**Lyambliya** - Ichaklarni infeksiyalaydigan, ko'pikli sariq ich ketishga sabab bo'ladigan mikroskopik parazit.

### M

**Marazm** - Yetarli ovqatlanmaslikdan kelib chiqadigan kasallik. O'ta ochlik. Odam juda ozg'in, vazni yetarlicha emas va ko'pincha qorni shishgan bo'ladi.

**Mastit** (ko'krak abssessi) - Bola emizilishining birinchi haftalarida yuz beradigan ko'krak infeksiyasi. U ko'krakning bir qismi qizishi, qizariishi va shishishiga olib keladi.

**Menopauza** - Ayollardagi hayz ko'rish siklining tabiiy ravishda to'xtashi, ko'pincha bu 40-50 yosh orasida yuz beradi.

**Migren** - Qattiq bosh og'riq, ba'zan faqat bir taraflama bo'ladi. Ko'pincha qayt qilishga olib keladi.

**Mikroblar** - Tanada yashovchi juda kichik organizmlar bo'lib, ular ba'zi

infeksion kasalliklarga olib keladi.

**Minerallar** - Organizmga kerak bo'lgan temir, kalsiy va yod kabi oddiy moddalar.

**Miya tomirlarida qon aylanishining keskin buzilishi** (insult) - Miya ichiga qon quyilishi yoki qon bo'lakchasi (tromb)dan birdan kelib chiqqan hushsizlanish.

**Mongoloidizm** (Daun sindromi) - Bolaning aqlan zaif, ko'zlari g'ilay, yuzi yumaloq va qayg'uli, qo'llari keng, barmoqlari qisqa bo'lib tug'ilishi.

**Muguz parda**- Ko'zning tiniq tashqi qoplami, u rangdor parda bo'lib ko'z qorachig'ini qoplab turadi.

**Muskul ichi ukollari** - Muskullarga ko'pincha qo'l yoki dumbaga qilinadigan ukollar, venaga qilinadigan ukollardan farqlidir.

### N

**Nafas soni** - Odamning bir minut ichida olgan nafaslarining soni.

**Nerv** - Miyadan organizmning hamma joylariga tarqalgan kichik organik tolalar. Ular odamga sezgi va harakatlar haqidagi ma'lumotni yetkazadilar.

**Ninalog'ich** (govmichcha) - Kiprik oldidagi qizil, shishgan infeksiya tufayli kelib chiqqan tuguncha, u ko'pincha ko'z qirg'og'iga yaqin joyda bo'ladi.

### O

**Ovqatga yolchimaslik**- Organizmga kerakli darajada yetarli ovqat iste'mol qilmaslik natijasida kelib chiqadigan sog'liq muammolari.

**Oziq (Ozuqali)** - Organizmga o'sish, sog'lom bo'lish va kasalliklarga qarshi kurasha olish uchun kerak bo'lgan moddalarga ega ovqat ozuqali hisoblanadi.

**Organ** (ichki a'zo) - Maxsus vazifani bajaruvchi va qisman mustaqil bo'lgan organizmning bir qismi. Masalan: o'pka, uning vazifasi nafas olish.

**Organizmlar** - Kichik tirik jonzot yoki o'simliklar.

**Oshqozon** - Ovqat hazm bo'ladigan xaltasimon a'zo. Xalq orasida oshqozon - qorin deb atiladi.

**Oshqozon osti bezi** - Oshqozon ostida joylashgan insulin gormoni ishlab chiqaruvchi organ.

**Oqsil** - To'g'ri o'sish va quvvat olishga kerak bo'ladigan o'sishga yordam beruvchi moddalar.



## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

**“Og'izdan og'iz”ga nafas berish** - Nafasi to'xtagan odamga boshqa odam yordamida nafas berish usuli. siydik nayi (yoki uretra) asosidagi muskulli, qattiq bez. Ko'pincha qari erkaklarning prostata bezi shishib, siyish qiyinchiliklarini tug'diradi.

**OITS (SPID)** - Orttirma Immunitet Tanqisligi Sindromi.

**Profilaktik** - Kasallikning oldini olish.

### P

**Pay** - Muskullarni suyaklarga bog'lovchi to'qimalar (bog'lam, suyaklarni suyaklarga bog'lab turuvchilardan farq qiladi).

**Pterigium** - Ko'z chetidan muguz pardasida o'sib boruvchi go'shtli o'simta.

**Parazitlar** - Odam va hayvonlarda yashovchi va ularga zarar yetkazuvchi gijja va kichik hayvonlar. Burga, ichak qurtlari (gijja) va amyobalar parazitlar qatoriga kiradi.

**Puls** - «Qon tomiri urishi»ga qarang.

### R

**Paralich** - Sholga qarang.

**Rak** - Tananing turli joylarida o'sib boradigan o'simta. Jiddiy hollarda o'linga olib kelishi mumkin.

**Parhez** - Odam sog'lom bo'lishi uchun iste'mol qilishi kerak bo'lgan ovqatlar miqdori va turi.

**Rangdor parda** - Ko'zning qorachig'i atrofidagi rangli yoki qora qism.

**Peritonit** - Qorin pardasining yalilg'lanishi. Bu xavfli kasallik. Qorin taxta singari qattiq bo'lib kasal, ayniqsa oyoqlarini cho'zishga harakat qilganda qattiq og'riq sezadi.

**Refleks** - Odam harakat qilmasidan avval yuz beradigan avtomatik harakat yoki ta'sir.

**Prostata bezi** - Erkak kishining

**Ruhiy tushkunlik (Depressiya)** - O'z qobiliyatiga ishonmaslik, g'amginlik, umidsizlik, istaklarning kamayishi, shuningdek, ichki

a'zolar faoliyatining buzilishi (yurak muammolari, ozib ketishi, ishtaha yo'qolishi, bosh va bel sohasidagi og'riqlar kabi) ga olib keladi.

### S

**Salbiy (nojo'ya) ta'sirlar** - Dorini ishlatishdan kelib chiqqan yomon ta'sirlar. Bulardan ba'zilar jiddiy va ba'zilar esa zararsizdir.

**Sanitariya** - Odamlarni tozalikka, kasallikning oldini olishga, gigiyena-ga e'tibor berish va jamoa joylarini toza tutishga chorlash.

**Sarg'ayib ketish** - Teri va ko'zlarning sarg'ayishi. Bu jigar, o't, oshqozon osti bezi yoki qon kasalliklari belgisidir.

**Safro** - Jigar ishlab chiqaradigan o't pufagiga yig'iladigan achchiq, zangori suyuqlik. U ichaklarda yog'ning parchalanishiga yordam beradi.

**Seboreya dermatiti** - Surunkali teri kasalligi turi. Ko'krak, yuz, bosh (quloq orqasida), ko'krakning yuqori qismlarida, yelka, tizza va tirsak bukiladigan joylarda uchraydi.

**Siydik sistemasi** - Siydikni xosil qiladigan organlar majmuasi: buyraklar, siydik naychalari, qovuq va siydik yo'li.

**Sinus** (bo'shliq) - Inson boshining

suyakli qismida ko'zning tepa va pastida joylashgan bo'shliqlar. Ushbu bo'shliqlar shilliq qavatlarining yallig'lanishi - **Sinusit kasalligi** deb aytiladi.

**Sog'lom oilani shakllantirish** - Bolali bo'lish yoki bo'lmasligini homiladorlikdan saqlanish usullari yordamida rejalashtirish.

**Spazm** - Odam nazorat qila olmaydigan muskullarning birdan qisqarishi. Ichakdagi spazmlar muskullarning tortishib og'rishiga sabab bo'ladi. Bronxlardagi spazm astmada namoyon bo'ladi. Jag' va boshqa muskullar spazmi qoqsholda uchraydi.

**Spazmga qarshi** - Tortishish va ichakning burab og'rishlarini pasaytirishda ishlatiladigan dori.

**Spastik** - Miya shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan muskullarning odatdan tashqari surunkali qisqargan holati. Spastik bola oyoqlari qaychi ko'rinishida bo'ladi.

**Sprinsellash** - Qin ichini suv sochish orqali yuvish yo'li.

**Steril** - (1) Juda toza va tirik mikro organizmlardan xoli. Narsalar qaynatish yoki isitish orqali sterillanishi mumkin.

## Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

(2) Steril, shuningdek, bepusht degan ma'noni ham anglatadi.

**Sterillash** - (1) Instrument(asbob), shisha va boshqa narsalarni qaynatish yoki isitish orqali tozalash. (2) Shuningdek, ayol yoki erkakni operatsiya yordamida bepusht qilish.

**Stetoskop** - Tug'ilmagan bolaning bachadon ichida chiqarayotgan tovushlarni eshitish uchun ishlatiladigan asbob.

**Stress** - Haddan tashqari kuchli taassurotlar natijasida odamda sodir bo'ladigan o'ta kuchli asabiy holat.

**Suvni Tiklovchi Ichimlik** - Suvsizlanishni davolash uchun ishlatiladigan maxsus ichimlik.

**Suvsizlanish** - Organizm qabul qilganiga nisbatan ko'proq suv yo'qotishi. Ushbu suvning yetishmovchiligi bolalar uchun, ayniqsa, xavflidir.

**Suspenziya** - Suyuqlikka aralashtirilgan, lekin erimaydigan kukun.

### T

**Toksikoz** - Homiladorlikning bir-

inchi oylarida, ko'pincha ertalab bo'ladigan ko'ngil aynishlar va qayt qilishlar.

**Talassemiya** - Ma'lum davlatlarda mavjud bo'lgan nasliy kamqonlik turi. Bola 2 yoshgacha juda kamqon bo'lishi, jigar va talog'i shishib ketishi mumkin.

**Tanosil kasalliklari** - Jinsiy aloqa orqali yuqadigan kasallik.

**Ta'sir doirasi keng antibiotiklar** - Mikro organizmlarning ko'p turlariga qarshi kurashuvchi dorilar.

**Ta'sir doirasi tor antibiotiklar** - Faqatgina ma'lum turdagi bakteriyalarga qarshi kurashuvchi dorilar.

**Tarvoq** - Teriga nisbatan ko'tarilgan, qichishadigan dog'lar. Ular hammasi birdan paydo bo'lib birdan yo'qolib ketishi va bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi mumkin. Allergik ta'sirning bir turi.

**Termometr** - Odamning tana haroratini tekshirish uchun ishlatiladigan asbob.

**Tinchlantiruvchi** - asabiylashishga va xavotirlanishga qarshi ishlatiladigan dorilar.

**F**

**Toksemiya** - Organizmdagi ma'lum zaharlardan kelib chiqqan kasallik, masalan, siyish toksemyasi (yoki uremiya, siydik bilan zaharlanish).

**Tola (kletchatka)**. Tolali ovqatlar-Asosan ko'katlarning tarkibida bo'lib, o'simlikning kimyoviy moddalaridan iborat. Odam tanasida to'liq hazm bo'lmay ichning yumshashiga olib keladi.

**Tumov** - Burun shilliq pardasining yallig'lanishi, ko'pincha allergiyalarda uchraydi. Pichan isitmasi.

**Tutqanoq** - Kasal odamda nazorat qilib bo'lmaydigan titrashlar. Odatda meningit yoki epilepsiya kabi kasalliklarda uchraydi.

**Tuxumdon** - Ayol qornida bachadonga yaqin joylashgan ikki kichik xaltachalar. Ular erkak spermasi(urug'i) bilan qo'shilib, bola hosil qiluvchi tuxumlarni chiqaradi.

**Tulg'oq** - Tugruq davrida bachadon muskullarining qisqarib qotishi.

**U**

**Umumiy nom** - Turli firmalar tomonidan berilgan nomlardan farqlash uchun dorining maxsus nomi.

**Firma tomonidan berilgan nom.**

Sotilish nomi. Firmaning mahsulotiga qo'yadigan nomi. Firma tomonidan berilgan nom, odatda maxsus bo'lib, ko'pincha bir xil tibbiy nomdagi dorilarga nisbatan qimmatroq sotiladi.

**Folat kislotasi** - To'q yashil bargli sabzavotlar tarkibida bor ozuqali modda.

**X**

**Xelikobakter pilori** - Mikroblar guruhiga kiruvchi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini hosil bo'lish sababi.

**CH**

**Chipqon** - Shishgan, yallig'langan terining ostida yiringlagan shish. Abssessning bir turi.

**Chov** - Oyoqlar tanaga qo'shiladigan joy. Jinsiy organlarga yaqin.

**Churra (grija)** - Ichakning qorin muskullaridagi ochiq joy yoki yirtilgan joyidan tashqariga chiqib teri ostidan to'pcha yoki shishchanning hosil qilishi.

**Chuvalchangsimon o'simtaning yallig'lanishi** (Appenditsit) - Katta ichakka qo'shilgan, barmoqchalik keladigan kichik ichakchanning yallig'lanishi.

### SH

**Shamcha** - O'q ko'rinishidagi yo'g'on ichak yoki qinga solinadigan dorining shakli.

**Shankr** - Zahmning dastlabki belgisidan bo'lgan, jinsiy organ, barmoq yoki labdagi og'riqsiz yaralar.

**Shok** - Og'ir quvvatsizlik, tananing sovuq bo'lishi yoki hushsizlik va tez, yuzaki qon tomiri urishi bilan kuzatiladigan holat. U suvsizlanish, qon ketish, jarohat, kuyish yoki og'ir kasallik tufayli kelib chiqadi.

**Shol** - Tananing biror qismini yoki butun tanani harakatlantira olmaslik.

### E

**Eklampsiya** - Homiladorlik yoki tug'ruqdagi kutilmagan tutqanoq. Homiladorlikdagi kech toksikoz oqibati.

**Embrion** - Endi rivojlanayotgan bolaning ona qornidagi shakli.

**Emlash** (Imunizatsiya) - Maxsus kasalliklardan saqlash uchun ishlatiladigan dorilar. Masalan: difteriya, qoqshol, ko'k yo'tal, poliomielit, sil va qizamiq kabilar.

**Epidemiya** - Yuqumli kasalliklarning tez va keng tarqalish jarayoni.

**Et uzilishi** (et cho'zilishi) - Pay yoki bog'lamlar qo'shilgan joylarning ko'karishi, tortilib qolishi yoki uzilishi. Et uzilishi et cho'zilishiga nisbatan yomonroq.

### YA

**Yallig'lanish** - Ko'pincha infeksiya tufayli qizib, qizarib, og'rib va shishib qolgan joy.

### O'

**O'simta** (o'sma) - Organizmda odatdan tashqari o'sib boruvchi to'qima. Ba'zi o'simtalar rak kasalligiga olib kelishi mumkin. Yallig'lanishsiz normal bo'lmagan to'qima bo'lishi mumkin.

**O't pufagi** - Jigar ostidagi kichik muskulli xalta.

O't pufagida safro to'planadi.

**“O'tkir qorin”** - Ko'pincha tezkor jarrohlik aralashuvini talab qiluvchi qorin sohasidagi kutilmagan og'riq. Qorindagi qayt qilish va ich ketishsiz bo'lgan og'riq o'tkir qorindan dalolat bo'lishi mumkin.

**Qon bosimi** - Qonning qon tomirlari (arteriya)ga urish kuchi. U odamning yoshi va sog'lig'iga qarab o'zgaradi.

**Qon tomirining urish tezligi** (puls) - Odam yuragining bir minutdagi urish soni.

**Qorachiq** - Ko'z o'rtasidagi qora va yumaloq joy. U yorug'da kichrayib, qorong'ida kattalashadi.

**Qorataloq** - Bir musht kattaligidagi kuraklarning chap pastki tarafda joylashgan a'zo. Uning vazifasi qonni filtrlash va eski qon xujayralarini parchalab qayta ishlab chiqarishga yordam berish.

**Qorin pardasi**- Ichaklar va tana orasidagi yupqa qatlam. Ichaklar joylashgan xalta.

**Qog'onoq suvi** - Bachadon ichida joylashgan bola turadigan xaltaning suyuqligi. U yirtilib suv chiqq boshlashi, tug'ruqning boshlanganligidan dalolat beradi.

**“Quyvon lab”** (og'iz tirtig'i) - Yuqori labning og'izdan burungacha bo'lgan yirtig'i. Ba'zi bolalar quyvon lab bo'lib tug'iladilar.

### H

**Hayz davri** (hayz) - Ayollardagi har oyda keladigan qon.

**“Himoyalovchi ovqatlar”** - Vitamin va minerallarga boy bo'lgan ovqatlar. Ular sog'lom bo'lish uchun va kasalliklarga qarshi kurashishga yordam beradi.

**Homila** - Bachadon ichida rivojlanayotgan bola.

**Homilaning tushib ketishi** - Bachadondagi rivojlanayotgan bolaning o'lishi, qon ketish va quyuqlashgan qon bo'laklari bilan ayol homilani yo'qotadi.

**“Homiladorlik niqobi”** - Yuz, ko'krak yoki qorinning o'rta qismidagi to'q rangli homiladorlikka xos bo'lgan dog'lar.

**Husnbuzar** - «Bo'jama»ga qarang.